



SHE'RIYATDA KIBR VA KAMTARLIK KATEGORIYALARINING BADIY IFODASI (Abdulla Oripov IJODI MISOLIDA)

Ibragimova Mashhura Mahmudjon qizi

*Urganch davlat universiteti Filologiya va
san'at fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya. Maqolada adabiyotning inson qalbiga ta'siri va uning ma'naviy tarbiyadagi o'rni yoritilgan. Abdulla Oripov she'rlari misolida kibr va kamtarlik masalalari tahlil qilinadi. Kibrning inson va jamiyat hayotiga salbiy ta'siri ochib berilib, kamtarlik insonni yuksaltiruvchi muhim fazilat ekani xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: adabiyot, she'riyat, kibr, kamtarlik, ma'naviyat, inson qalbi, fazilat, jamiyat, tarbiya, Abdulla Oripov.

Annotation. The article examines the impact of literature on the human soul and its role in moral and spiritual development. The poetry of Abdulla Oripov is analyzed to discuss pride and humility. The negative effects of pride on individuals and society are revealed, while humility is concluded to be an important virtue that elevates a person.

Keywords: Literature, poetry, pride, humility, spirituality, human soul, virtue, society, education, Abdulla Oripov.

Аннотация. В статье рассматривается влияние литературы на душу человека и её роль в нравственном и духовном воспитании. На примере стихотворений Abdulla Oripov анализируются вопросы гордости и смирения. Показывается негативное влияние гордости на жизнь человека и общества, а смирение рассматривается как важное качество, возвышающее личность.

Ключевые слова: Литература, поэзия, гордость, смирение, духовность, душа человека, добродетель, общество, воспитание, Абдулла Орипов.

Insonning qalbini katta bir koshonaga qiyos etsak, adabiyot uning yagona darvozasidir. Anglaganimizdek, ushbu koshonaga adabiyot, ya'ni sohir so'z



orqaligina kirish mumkin. Shuning uchun she'r yaratish, umuman olganda, ish quroli so'z bo'lgan san'at asarini yaratish - yuki og'ir vazifa. U hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Shu boisdan bo'lsa kerak, menda ijod ahli uchun g'ayritabiiy mehr, qiziqish bor.

O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov: " Yaxshi she'r yaxshi shoir kabi noyob hodisa. Chinakam shoir har yili chiqavermagandek, chinakam yaxshi she'r hatto eng ulkan shoirlarga ham har kuni nasib bo'lavermaydi. Shunday she'r paydo bo'lgan kun esa faqat shoir uchun emas, butun she'riyat uchun bayram bo'ladi" ,- degan edilar. Shunday bo'lsa-da, Vatanimizning suyuqli shoiri, o'zining ayricha ovozigga ega iste'dodli ijodkor Abdulla Oripov she'rini yaratgan har bir kunni o'zbek she'riyati uchun bayram bo'lganligini iqror etmay ilojimiz yo'q.

Men gohida o'ylab hayron qolaman: asl baxt nimada o'zi? Nima qilsam, xursand bo'laman? Baxt- bu hayotda borligimiz, sog'ligimiz, nafas olayotganligimiz, oilamiz, maktabimiz, ustozlarimiz... Noshukurlik bo'lmasin-u, negadir bular meni sevintira olmaydi. Ma'yus o'yga tolaman. O'ylab o'yimga yetolmayman...

Keyin bilsam, biz xursand bo'lishimiz uchun kimningdir quvonchiga sabab bo'lishimiz kerak ekan. O't tutashishi uchun dastavval uni hosil qilmoq lozim bo'lganidek, bizda ham sevinch, shodlik paydo bo'lishi uchun dastlab kimnidir xursand qilish talab qilinadi. Zotan, ushbu maqolani yozishimga ham, avvalo, shoirning benazirligi, betakror ilmiy merosi, qolaversa, ustozlarimning yuzida mamnunlik hosil qilish istagi turtki bo'layotgan bo'lsa, ajab emas. Yaxshi so'z, shirin muomala, maqtovlar, havas to'la ko'zlar-u olqishlar kimga yoqmaydi deysiz. Muhimi, erishgan yutuqlarimiz qalblarga surur bag'ishlasin-u, bizni havoli qilib qo'ymasin...

...Darhaqiqat, shoirning yuragi keng bo'lishi kerak, degan gapda jon bor, sababi u shu yuragiga butun olam haqiqatlarini, quvonch-u tashvishlarini, dardlarini joylay olishi lozim. Tevarak atrofda yuz berayotgan voqea-hodisalarning hech biri shoirni bee'tibor qoldirishga qodir emas. Shu jumladan, atoqli shoir Abdulla Oripov ham yon-veridagi "burni ko'tarilganlar" nutqiga nisbatan loqayd bo'lolmagan:

Men borman - dunyo bor, men yo'q - dunyo yo'q,
Faqat bugunni bil, faqat bugunni.



Bisoting mavjudmi ko'ngling bo'lsin to'q,

Eslatma oxirat degan u kunni...

Kibr. U tufayli Shayton jannatdan quvildi. Bir paytlar nurli farishta bo'lgan Iblis, birgina takaburligi sabab abadiy la'natga duchor bo'ldi. U bo'yin egmadi. Itoat etmadi. U insondan ustunligini da'vo qildi. Lekin bir haqiqatni unutdi: kibr – halokatga eltuvchi yo'lning birinchi qadamidir. O'ylab ko'raylik-a, hatto farishtalarga, payg'ambarlarga ham kibrli bo'lishga ijozat berilmagan-u, bandalariga yo'l bo'lsin... Shoir ham yuqoridagi misralari bilan shuni aytmoqchi bo'lgan, nazarimda.

Insof nodonlarga erur munosib

Sen-chi, faqatgina o'z-o'zingni bil.

Hatto avliyolar xokini bosib,

Maqsadga intilgil, maqsadga intil.

Bu misralar kibrli, o'z manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadigan, atrofdagilarga bepisand odamning ichki dunyosini ochib beradi. Bunday inson insof, adolat kabi tushunchalarni faqat "nodonlar" uchun deb biladi, o'zini esa ulardan yuqori qo'yadi (Insof nodonlarga erur munosib). Darhaqiqat, bu ibora kibrli odamning asosiy e'tiqodini ham ifodalaydi. U insofni zaiflik, nodonlik belgisi deb hisoblaydi. O'zini esa "aqlli" va "ustun" deb bilgani uchun, unga kechirim so'rash, xatolarni tan olish, insof, o'zaro hurmat, birdamlik tushunchalari mutlaqo begona. "Sen-chi, faqatgina o'z-o'zingni bil" deyish uchun inson nechog'lik xudbin bo'lishi kerak?.. Kim shunday deb o'ziga xitob qiladi? Kibrli odam boshqalarga e'tibor bermaslikka, faqat o'z manfaatlarini ko'zlashga urinadi. Uning uchun atrofdagilar - maqsadga erishish yo'lidagi vosita, xolos. Bu misralar bizga Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasidagi uchastka pristavining Qobil boboga aytgan "Arz qilinsin-da axir", "Nimaga yig'lanadi-a, yig'lanmasin" degan gaplarini beixtiyor yodga solishi tayin. Hatto ayrim "mag'rur"lar uchun hurmat sifatida "Siz" deb gapirish ham viqordan mahrum qiladi go'yo. "Sen" desa, yoshi katta. Shuning uchun majhul nisbatdagi fe'l bilan murojaat qiladi: "Yig'lanmasin!"



"Hatto avliyolar xokini bosib, Maqsadga intilgil, maqsadga intil" - Bu misralar kibrli odamning naqadar shafqatsiz va bepisand ekanligini ko'rsatadi. "Avliyolar bosgan tuproq aziz derlar". U o'z maqsadiga erishish yo'lida hech narsadan qaytmaydi, hatto avliyolarning xokini bosib o'tishga ham tayyor. "Kibr -ko'ngil kiri" deganlari rost ekan, bundaylar uchun muqaddas narsaning o'z yo'q. "Maqsadga intilgil, maqsadga intil" degan takror aytilishi ham bekorgamas... Ularning fikr-u xayoli faqat o'z manfaatini ko'zlash bilan band.

Uch-to'rt xayolparast bukkanicha qad
Tushining ta'birin topganicha to
Sizning fikringizcha ya'ni men - murtad
Egallab olaman dunyoni hatto.

Murtad - dindan qaytgan, Xudoga shak keltirgan odam. "Uch-to'rt xayolparast bukkanicha qad, Tushining ta'birin topganicha to" - Bu misralarda kibrli shaxs o'zidan past deb bilgan insonlarni "xayolparast" deb ataydi. Ularning orzulari, intilishlari, uning nazarida, hech narsaga arzimaydi, shunchaki bema'ni xayollar. "Bukkanicha qad" degan ibora ularning zaifligini, ojizligini ta'kidlaydi. "Tushining ta'birin topganicha to" esa ularning bema'nilik bilan mashg'ul ekanligini ko'rsatadi. "Sizning fikringizcha ya'ni men - murtad, Egallab olaman dunyoni hatto" - Bu misralarda kibrli shaxs o'zining qudratiga ishora qiladi. "Murtad" so'zi uning jamiyat qonun-qoidalariga, urf-odatlariga zid ekanligini bildirishi mumkin. Lekin aynan shu "murtad"ning o'zi dunyoni egallashga qodir. Bu uning o'ziga haddan ziyod ishonchini, o'z maqsadiga erishish yo'lida hech narsadan qaytmasligini ko'rsatadi. "Egallab olaman dunyoni hatto" iborasi esa uning kibrini yanada kuchaytiradi. Uning nazarida "uch-to'rt xayolparast"dan farqli o'laroq, u dunyoni o'ziga bo'ysundirishga qodir.

Nega tinglamaysan kibrning so'zin
Oliyjanob eding, ahvoling tangmi?
Asrlardan buyon butkul yer yuzin
Boshqargan menmi yo kamtar otangmi? (21-yanvar 2015-yil)



Bu to'rtlikda kibrli insonning ustunlikka da'vo qilishi, kamtarlikni mensimasligi va o'zining avlodlar davomida hokimiyat tepasida bo'lgani bilan faxrlanishi aks etgan "Nega tinglamaysan kibrning so'zin, Oliyjanob eding, ahvoting tangmi?" - Bu misralarda kibrli inson o'zining maslahatiga quloq solmaslikning sababini so'raydi. U kibrni hayot yo'li, muvaffaqiyatga erishish vositasi deb biladi. "Oliyjanob eding, ahvoting tangmi?" degan savol orqali esa kamtarlikning foydasiz ekanligini, hatto insonni qiyin ahvolga solib qo'yishini ta'kidlamoqchi. Go'yo kamtarlik uni kambag'al va nochor qilib qo'ygan. "Asrlardan buyon butkul yer yuzin Boshqargan menmi yo kamtar otangmi?" - Bu misralar kibrli insonning o'z shajarasiga, avlodlar davomida hokimiyat tepasida bo'lganiga ishora qiladi. U o'zining oilaviy nasli bilan faxrlanadi, ularning hokimiyatga erishishida kibr muhim rol o'ynaganiga ishora qilmoqda. "Boshqargan menmi yo kamtar otangmi?" degan savol orqali esa kamtarlikning boshqaruvda, hokimiyatda o'rni yo'qligini, aksincha, kibr va shafqatsizlik hukmronlikning asosiy sharti ekanligini uqtirmoqchi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, ko'plab buyuk shaxslarning muvaffaqiyatga erishishining asosiy sababi kamtarlikdir. Kibr esa inson ruhiyatini izdan chiqaradigan, jamiyatdagi munosabatlarni buzadigan va oxir-oqibat shaxsning o'ziga ham zarar yetkazadigan illatlardan biridir. Avvalo, kibr insonning o'zini boshqalardan ustun qo'yishi, ularga past nazar bilan qarashi va o'zining kamchiliklarini tan olmasligidir. Kibrli inson hech qachon o'zining xatolarini ko'rmaydi va doim boshqalarni ayblaydi. Bu esa uning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Masalan, ilm yo'lida yurgan kishi o'zini hammadan aqlli deb bilsa, boshqalarning fikrini tinglamasa, u hech qachon yangi bilimlarni o'zlashtira olmaydi. Shu sababli kibr insonning kamol topishiga jiddiy zarar yetkazadi. Shuningdek, kibr insoniy munosabatlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kibrli kishi o'zidan past lavozimdagi insonlarga yomon munosabatda bo'lishi, ularni kamsitishi mumkin. Bu esa jamiyatda adolatsizlik va kelishmovchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Aksincha, kamtarin inson har qanday kishiga hurmat bilan munosabatda bo'ladi va shu tufayli ham boshqalarning hurmatiga sazovor bo'ladi. Tarixdan ham kibrning yomon oqibatlariga misollar ko'p. Ne-ne shohlarning kibr sabab taxti qulamagan



deysiz? Misol uchun, Misr fir'avn o'zining qudrati bilan maqtanib, hatto o'zini ilohiy maqomga chiqardi. Lekin oxir-oqibatda u dengiz to'lqinlari orasida nom-nishonsiz halok bo'ldi. Demak, kibr insonni halokatga yetaklaydi.

Ushbu she'rdan kelib chiqadigan asoaiy xulosa shuki, kibr insonning o'zini va atrofida qilgan zavolga yetaklaydigan illatdir. Kamtarlik esa insonning eng go'zal fazilatlaridan bo'lib, unga muvaffaqiyat va hurmat olib keladi. Shuning uchun har bir inson kibrdan yiroq bo'lib, kamtarlikni o'ziga odat qilishi lozim. Zero, kamtar inson har doim yuksaladi.

Jamiyatda illatlar ko'p: kibr, hasad, aldov, xiyonat... Bu illatlar inson qalbini qora dog' kabi qoplaydi, jamiyatni esa tubanlikka yetaklaydi. Shunday botqoqliklarga botib qolmaslik uchun ham qalbg'a nurlik so'zlar kerak, to'g'ri yo'l ko'rsatadigan ma'rifat lozim. Abdulla Oripov kabi shoirlar ana shu og'ir yukni yelkasiga olgan – she'riyati bilan xalqni uyg'otgan, haqiqatni ko'rsatgan, ma'naviy botqoqlikdan olib chiqishga harakat qilgan. Shoir qalami – bu najot kemasi, ko'ngillarni poklaydigan ilohiy yomg'idek go'yo. Abdulla Oripov o'z she'rlari bilan adolatsizlikka qarshi kurashdi, haqiqat va vatanparvarlikni tarannum etdi. U nafaqat shoir, balki jamiyatni ezgulikka yo'naltiruvchi ulug' rahnamo ham edi.

Haqiqiy shoirlar qalblarga nur olib keladi, to'g'ri yo'lga ko'rsatadi. Ular insonni ma'naviy jihatdan yuksaltirib, jamiyatni poklashga, undagi illatlarni yo'qotishga hissa qo'shadi. Demak, adabiyot nafaqat so'z san'ati, balki qalblarni tozalash vositasi hamdir. Va biz, bugungi avlod, ana shunday buyuk shoirlarning merosidan ilhom olib, jamiyatdagi yovuzlikka qarshi kurashmog'imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. – Toshkent.
2. Erkin Vohidov. She'rlar to'plami. – Toshkent.
3. Abdulla Qahhor. "O'g'ri" hikoyasi.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent.
5. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent.